Qiziltepa tuman Axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmati

Qadimiy va hamisha navqiron

TUMANIMIZ QIZILTEPA NOMI BILAN (1935) TASHKIL TOPGANLIGINING 90 YILLIGI OLDIDAN

(KITOBXONGA ESDALIK)



Axborot-bibliografiya xizmati

tomonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi: D.Hamroyeva

AZIZ KITOBXONLAR !

Har bir inson o‘z tarixini bilishi shart deb o‘ylayman, chunki tarixni bilmay kelajakni qo‘rib bo‘lmaydi. Qiziltepa tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bizning diqqatimizni uning o‘tmishi-moziyi beixtiyor o‘ziga tortadi.

O`lkashunoslik-o`z tug`ilgan va yashaydigan joyi haqidagi bilimlar majmuasi bo`lib, juda uzoq davrlar mobaynida vujudga kelgan.Ibtidoiy odamlar ham o`z yashash joylari tabiatini juda yaxshi bilishgan,ular o`zlarining eng sodda bilimlarini toshlarga chizib ketishgan. Bunday rasmlarning anchagina qismi hozirgacha saqlanib qolgan.

Esdalikda bugungi Navoiy viloyatining ko’hna va navqiron tumanlaridan biri –Qiziltepa tarixi haqida so’z boradi.

Ushbu esdalik keng kitobxonlar ommasi uchun mo’ljallangan.

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi.

Sh. Mirziyoyev

Qadimiy va hamisha navqiron.

TUMANIMIZ QIZILTEPA NOMI BILAN (1935) TASHKIL TOPGANLIGINING 90 YILLIGI OLDIDAN.

Navoiy viloyatining ma’muriy hududlaridan biri bo‘lgan hozirgi Qiziltepa tumani uzoq o‘tmishda ma’lum va mashhur sanalib ulkan Sug‘d tarixiy-madaniy mintaqasining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan. Sug‘d mintaqasi Zarafshon daryosining butun vodiysi hamda Qashqadaryo havzasi madaniy hududlaridan iborat bo‘lgan.

O‘rta asrlarning arab va fors tarixchi va geograflari Sug‘d mintaqasini an’anaviy tarzda uch qismga bo‘lganlar. Samarqand Sug‘di [Markaziy Sug‘d], Buxoro Sug‘di [G‘arbiy sud] va Kesh-Naxshab Sug‘di [Janubiy Sug‘d]. Harr uchala qism o‘zaro tabiiy chegaraga ham ega edi: Zarafshon tog‘ tizmalari Samarqand va Kesh-Naxshab o‘rtasini, Karmanadan keyin Malik cho‘li Buxoro va Samarqand Sug‘dini ajratib turgan. G‘arbiy Sug‘d Buxoro vohasining to‘liq hududi hisoblanib, u Qiziltepa, Konimex, Buxoro va Qorako‘l ma’muriy hudud-vohalaridan tashkil topgan.

1.Bo‘ston Sug‘diyonaning 1-podshohlik poytaxti.

Bo‘stontepa yodgorligi Bo‘ston qishlog‘i markazida joylashgan. Arxeolog olimlar bu yodgorlikni Sug‘diyonaning birinchi shaharlaridan hisoblashadi. Va 2800 yil bilan sanalashadi. Qal’a quyi tomonidagi qabristonni podshohlik qabristoni bo‘lgan degan taxminlar bor. Qabristonda mashhur shaxs Xoja Bistomiy Boyazidning ramziy qabri bor. 1990 yil jamoatchilik kuchi bilan uning ustiga mahobatli maqbara qurildi.

Mustaqillk xalqimizning tahqirlab kelingan milliy va diniy qadriyatlarini tikladi. 2015 yilda yangi mahobatli masjid qurilishi boshlanib, hozirgacha davom etyapti.

Qabriston ustidagi quduq suvi shifobaxsh degan rivoyatlar bor.

2. Sayiltepada Navro‘z 3000 yil.

J.Mirzaahmedov, Sh.Odilov, M.Pardayev, R.Maqsudov hammuallifligidagi «Qiziltepa qadimiyatidan lavhalar» kitobining 44-sahifasida «Sayiltepa o‘rnida yozma manbalarda ma’lumoti berilgan. Andoq aholi punkiti mavjud bo‘lgan. Yodgorlik haqiqatan o‘rta asr mualliflari atamasiga juda o‘hshash va nihoyat, Buxorodan 10 farsang uzoqlik radusida sifat va xususiyatlari bo‘yicha Andoqqa o‘hshash boshqa yodgorlik qayd etilgan emas », deb ta’rif berilgan.

Arxeolog olimlarning e’tirof etishicha, Sayiltepa o‘tmishda juda katta shahar bo‘lgan.Mazkur mahobatli shahar yodgorligining ikkinchi nomi shu yerda mavjud bo‘lgan Andoq qishlog‘i nomidan olingan.Hozirda sayitepaning bo‘yi 42 m , eni 15 m, balandligi 6 metr x’arobalari saqlanib qolgan.

Shu qishloq keksalarining aytishicha, Sayittepa yonidagi Xoja Hasan Andoqiy qabrstonida gumbazli maqbara va 14 metr balandlikdagi minora bo‘lib, ular o‘tgan asr qirqinchi yillarida buzib tashlangan. Qabriston yuqori tomoni, Sayiltepa shahridagi masjid buzilib qayta qurilgan. Masjid quyisida masjid bo‘lib, odamlar uning suvidan shifobaxshligi uchun iste’mol qilishgan. Quduq hozir ham bor va suvidan foydalaniladi.

Sayiltepa yonidagi masjid Xoja Hasan Jome’ masjidi sifatida mustaqillikdan keyin yana ro‘yxatdan o‘tkazilib faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hozirda u yerda 700 kishi namoz o‘qiydigan mahobatli masjid binosi, mehmonxona va oshxona binolari homiylik asosida qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Bu joyda taxminan uch ming yil oldindan boshlab Navro‘z sayli o‘tkazilgani haqida ma’lumot bor.

3. Demasdan (eradan oldin) jahon bozori.

Kattatepa (Demastepa) yodgorligi Demas qishlog‘i g‘arbida Shohrud kanali yoqasida joylashgan. Hozir qabristonga aylangan bu yodgorlik V-VII, X-XII asrlarda shahar sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Arxeologlarning fikriga ko‘ra, Demas o‘rniga Kattatepa emas, hozirgi Kogon tumani hududidan Taytaltepa mos keladi. Undagi hayot tanazzulga uchragach, aholi 8 km. Yuqoridagi Kattatepa yaqinida Demas qishlog‘iga asos solgan. Kattatepa shahar xarobalari esa Buxoro vohasining yana bir qishlog‘i Sharg‘ o‘rniga mos keladi.

Bu aholi makoni Sam’oniy, Yoqut Hamaviy, Muqaddasiy, Beruniy, ibn Havqal, Narshaxiy asarlarida Sharg‘,Jarg‘, Jargar, Jurg‘ nomlari bilan qayd etilgan.

Qadimgi davrlarda bu yerda 10 kun katta bozor faoliyat ko‘rsatgan. Uzoq o‘lkalarda savdogarlar kelishgan. Sharg‘ aholisi o‘zining shinni qo‘shib tayyorlagan holvasi, tuzlangan balig‘i, qorako‘l terisidan tikilgan pocha-po‘stini, bo‘z matolari, yog‘och va misdan tayyorlangan buyumlari bilan mashhur bo‘lgan. Keyinchalik bozor juma kunlari o‘tkazilagn va unda savdo qilingan mahsulotlar uzoq-uzoqlarga olib ketilgan.

Demastepa yonida shu nomdagi ziyoratgoh bor. Islom davrida Sharg‘da Buxoro shahridagidek jome’ masjidi qurilgan. Lekin unda faqat bir marta juma namozi o‘qilgan. Buxoro ulamolari amri bilan bu masjid buzilib, yog‘ochlari Buxoroga tashilgan.

Uzoq tarixga nazar solsak Buyuk ipak yo‘li Buxoro vohasida Sharg‘ (Demas Kattatepa) orqali Zarmitan, Vang‘ozi, Mag‘ittepa, Qiziltepa , Bo‘ston, Hushartitepa, Abu Muslim tepa, Ganchtepa (Bo‘ritepa) orqali Karmanaga o‘tgan. Vohadagi jahon bozori dastavval Sharg‘, keyin Tavois (Sug‘dacha), undan so‘ng Vang‘ozida bo‘lgan. Vang‘ozi bozorining yana bir nomi Sarbozor bo‘lgan. Shunga ko‘ra hozirgi Qiziltepa tumani hududida miloddan avval ham, keyin ham jahon bozori faoliyat ko‘rsatgan.

4. Kampirak devori necha yoshda?

O‘rta osiyo mudofa istehkomlari me’morchiligining nodir namunasi hisoblangan «Kampirdevol» ning sharq tomoni Karmana tumani markazi chegarasida Qoratog‘ o‘ngirlaridan boshlanib, Zarafshon chap qirg‘og‘i bo‘ylab sharq-g‘arb tomonga yo‘nalgan. Kampirak devori Qiziltepa tumaning shimoli-sharqiy, janubi-g‘arb tomonidagi mazelarda yer sathi tepasidan aniq ravshan ko‘rinib turuvchi, uzoq masofalarga cho‘zilib ketgan sun’iy tuproq qo‘rg‘on qoldiqlari bo‘lib, Abu Muslim kanalining chap qirg‘og‘i bo‘ylab Qiziltepa yodgorligi

tomon yo‘nalishini davom ettiradi va undan janubi-g‘arbga, so‘ngra janubga yo‘nalib, Kogon tumanining janubi-sharq qismida o‘z nihoyasiga yetadi.

Arxeolog va tarixchilar «voha devori» deb nom bergan Kanpirak devori nafaqat alohida joylashgan bir turkum shahar va qishloqlar mudofasi uchun, balki ulkan madaniy hudud butun bir voha mudofasi maqsadlari yo‘lida xizmat qilgan. U o‘zining me’moriy qurulish usullari bilan jahonga mashhur Buyuk Xitoy devorini eslatadi. Samarqandshahri va uning atrofini o‘rab turgan Qiyomat devori (Devori Qiyomat) ham unga o‘hshashdir.

«Kampir devor» so‘zining ma’nosi qazilgan choh demakdir. Bu yerda talaffuzda «n» bilan «m» almashinuvi kuzatiladi. «Air» bo‘g‘ini esa qadimgi «payrya»-aylana-o‘rov ma’nosida. Demak, kan(m)pir so‘zining o‘zi xandalakli devor degani. Devor so‘zi kanpir so‘zining tub ma’nosi unitilgandan keyin qo‘shilgan.

Kanpirak devorining ikkinchi qismi Buxoro sug‘dining shimoli-g‘arb tomondan Varaxsha (Jondor tumani), undan Subuktepa, Bo‘rontepa (Romitan tumani), Xo‘jaqultepa (Peshku tumani) sarhadlari hamda Shofirkon kanali chap qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tib, Abu Muslim tepaga tutashgan.

Qorako‘l vohasi tarkibidagi qadimgi Poykent shahri atroflarida mudofa devori o‘rnida mudofa qudrati oshirilgan ko‘p sonli karvonsaroylar bunyod etilgan.

Sovuq kunlar boshlanishi bilan Sibir tomonlardan ko‘chib keluvchi ko‘chmanchi chorvador qabilalar bosqinidan himoya qilishga Buxoro vohasidan ko‘plab yosh jangchilar qatnashgan.

Tili, urf-odatlari o‘zgacha, jasur va uyushgan ko‘chmanchi chorvador qabilalar mahalliy aholi ustiga muntazam bosqinlar qilib, odamlar mol-mulkini, o‘zini tashlagan, o‘ldirishgan.

Kanpirak devori o‘troq aholini shunday bosqinlardan himoya qilish maqsadida bunyod etilib , saqlangan.

Narshaxiyning «Buxoro tarixa» asarida Kanpirak devori 782-831 yillarda qurilganligi yozilgan. Arab tarixchisi va sayyohi Mas’udiy (956 yili vafot etgan) yozishicha, Kanpirak devori qadimgi sug‘d podsholari zamonida (V-VI asrlar) bino qilingan. Kanpirak (Kampirak) devor va uning yo‘nalishidagi Ganjtepa, Abu-Muslim tepa, Shahrivayron, Qiziltepa, Oqsochtepa, Ajvanditepa, Lavandoqtepa, Kuyukmozortepa; shuningdek Bo‘stontepa, Demastepa (Kattatepa), Tavois, Toshmachid, Barqurttepa, Mir Said Bahrom maqbarasi, Degaron majmuasi, Raboti Malik sardobasi, Xoja Xisrav maqbarasi, Qosim Shayx majmuasi, Nurato yodgorliklari , Shayx Gadoy selkin maqbarasi, Oqmachit majmuasi, Chordara Kason kabi arxeolog yodgorliklar hozirgi Navoiy viloyatining qadimgi sug‘d tarkibida madaniy tarixi miloddan oldingi Vasridayoq boshlangandan darak beradi.

5. Tavois qadimgi Buxoro viloyatlaridan biri.

«Qiziltepa tarixi» kitobi 1-nashrida yozilishicha, arablar Xurosonni bosib olgach, VII asr ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroga qarshi ko‘plab talonchilik yurishlarini olib borgan.

Atoqli alloma Abu Rayxon Beruniy (973-1048) o‘zining 1000 yili yozgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida keltirilishicha, «Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va bilimini boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo‘q qilib yuborgan edi.Shuning uchun (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qoldi».

Qutayba tomonidan Xorazmda qilingan vahshiyliklar to‘g‘risidagi Beruniyning mulohazalari ayni paytda Sug‘diyona hududiga ham tegishli. Qutayba Buxoro vohasida sug‘d xalqi tomonidan ming yillar davomida yaratilgan moddiy va ma’naviy yodgorliklarni islom dini niqobi ostida vayron qilgan Sug‘d va boshqa mahalliy xalqlar ayovsiz ravishda qirib yuborilgan. Bu holat Arqud qishlog‘i aholisiga ham taalluqli. Arablar Turonni bosib olgach ham hozirgi Qiziltepa tumani hududlari Tavois viloyati deb nomlangan.

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» Buxoro va unga qo‘shiladigan joylar nomli to‘rtinchi bobida Karmina (Karmana) , Nur (Nurota), Tavois, Iskajkat, Sharg‘, KZandana, Vardona, Afshina (Afshona), Barkad, Romtin (Romitan), Varaxsha, Baykand (Poykent), Farab (Forob) singari 13 ta Buxoro qishloqlari va shaharlariga maxsus to‘xtab o‘tilgan. Shunisi xarakterliki, bu o‘rinda faqat Tavois viloyat sifatida tilga olingan. Tavois viloyati hududiga taxminan hozirgi Qiziltepa tumani to‘g‘ri keladi. Narshaxiyning Tavois viloyati haqidagi fikrini birlamchi tarixiy manba bo‘lganligi uchun ushbu o‘rinda to‘liq keltirib o‘tishni lozim topdik.

«Yana Tavois. Bu Buxoro viloyatlaridan bo‘lib, asl nomiArquddir. Unda boy va zebu ziynatni sevuvchi kishilar yashaganlar. Zebu ziynatga berilganligidan har bir kishi ziynat uchun uyida bitta yoki ikkita tovus saqlagan. Arablar (bu yerga kelishdan) ilgari tovusni ko‘rmagan ekanlar, bu yerda ko‘p tovuslarni ko‘rib, u qishloqni «Zot ut-tavois»-«Tovuslar egasi» deb ataganlar, uning asl nomi esa unitilgan; undan keyinroq «zot» so‘zini tashlab tovus deb qo‘ya qolganlar. Unda masjidi jome bor, u katta bir shahristonga ega, qadimgi vaqtlarda (har) kuz faslida u joyda o‘n kun bozor bo‘lar edi.» U bozorda shunday rasm bor ediki, (boshqa bozorlardan surilib

qolgan) har qanday nuqsonli qullar, chorva mollari va boshqa aybli qoldiq narsalar bo‘lsa hammasi bu bozorda sotilaverar va ularni qaytarib berishning hech iloj-imkoni bo‘lmas edi: na sotuvchi va oluvchining hech bir sharti qabul qilinmas edi. Har yili (shu o‘n kunda) bu bozorga masalan, Farg‘ona, Choch va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o‘n mingdan ortiq kishi hozir bo‘lishar va ko‘p manfaat topib qaytar edilar. Shu sababli bu qishloqning aholisi boy yashar edila rva boyliklari dehqonchilik tufayli emas edi. Tavois Samarqandga boradigan katta yo‘l ustida bo‘lib, undan Buxorogacha yetti farsangdir.Narshaxiy yozib qoldirgan ma’lumotlarga tayanib, sho‘uni aytish mumkinki, dastlab Tavoisning nomi Arqud bo‘lgan. Milodiy era boshlarida bu yerda zardushtiylarning muqaddas otashkadasi va otashgoh bo‘lgan. Ma’lumki, otashkada zardushtiylik dini ibodatxonasi isoblanib, u dastlab diniy marosim va ibodatxonalarni bajarish maskani bo‘lgan. Asta-sekin otashkadalarning vazifasi o‘zgarib borib, jamoa yig‘inlari va boshqa tadbirlar o‘tkaziladigan joyga aylangan. Bino oldida doimo olov yonib turadigan otashkada maydoni bunyod etilgan. Otashkadalar diniy udum va marosimlarni o‘tkazadigan manzil bo‘lish bilan birgalikda ma’naviy va ma’rifiy ishlar markazi ham hisoblangan. Otashgoh (olovxona) esa zardushtiylar sig‘ingan, doimiy olov yonib turadigan maxsus bino sanalgan. Otashgohlar qavm raisi tomonidan tayinlangan ozarbon (otashbon) tomonidan qo‘riqlanib, nazorat qilib turilgan.Xullas, Tavoisda joylashgan ushbu otashkada va otashgoh bir necha yuz yillar davomida mavjud bo‘lgan.

Mo‘g‘illar bosqini davrida Tavois butunlay yakson qilingan va tuman markazi Vang‘oziga ko‘chgan. Vang‘ozi Komi Abu Muslim nomi bilan ham mashhur bo‘lgan.

6. Ibodatxona o‘rni yoki Vang‘ozi.

Vang‘ozi atamasi sug‘d tilida bane (ibodatxona) va «zi» / «ze» bo‘g‘ini esa «joy», «o‘rin» ma’nolarini anglatib «ibodatxona o‘rni» yoki «ibodatxona joylashgan yer» ma’nosini anglatadi.

Arxeologlar o‘rtasida Mang‘ittepa avvalgi Vang‘ozi o‘rniga to‘g‘ri keladi, degan taxminlar bor.

Qadimgi Sug‘dda o‘zining yuksak madaniyatiga ega bo‘lgan Vang‘ozi turk hoqonligi davrida ham uni saqlab qolgan. Bu yerda islom davrida dusinja (ikki sinjli) masjid, uning yonida cho‘pkori minora qurilgan. Vang‘ozi (Vang‘oze) qishlog‘i haqida .

Vang‘ozi qishlog‘ining vujudga kelishi va bir necha marta qayta nomlanish tarixi qadimiyligi va qiziqarli ekanligi bilan e’tiborni o‘ziga tortadi. Chunki bu qishloq faqat Buxoro vohasida emas, balki Turkiston mintaqasida ro‘y bergan ko‘pgina muhim tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

XVI asr boshlarida bu qishloqni Bagazi-dih yoki Vaganzi (Vag‘onze) deb nomlanganlar. Bu haqda tarixchi olim Fazlulloh ibn Ro‘zbehon o‘zining «Mehmonnomai Buxoro» asarida yozib o‘tgan. «Mehmonnomai Buxoro» asarida yozilishicha, 1509 yil 30 yanvarda Buxoro xoni Muhammad Shayboniyxon va uning jiyani Ubaydullaxon (Ubaydulla Sulton) katta qo‘shin bilan Vaganzi (Vang‘oze) dan G‘ijduvonga jo‘nab ketgan. Shayboniyxon 16 fevralda G‘ijduvonga, 18 fevralda Arquqda bo‘lgan. N. Xanikovaning yozishicha, bu qishloq ilgari «Buxorodan uncha uzoq bo‘lmagan Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan shahar edi. Buxoro amirligi davrida

Vaganza (Vang‘oze) qishlog‘i Komi Abu Muslim tumanining markazi bo‘lgan.

Qishloq qariyalarining aytishlaricha, Vang‘ozida XIX-XX asr boshlarida asos aylanasi taxminan 2 km. Bo‘lgan aylana devor bilan o‘ralgan yagona darvozali mustahkam qal’a-qo‘rg‘on bo‘lgan. Qal’a ichida qorovulxona, ma’muriy binolar, qozixona, mirshabxona , qamoqxona kabilar mavjud bo‘lgan ekan. Shuningdek, bu qishloqda , savdo rastali bozor, qator turarjoy va diniy inshootlar qad ko‘targan bo‘lib, hozirda ulardan XVI asrda pishiq g‘ishtdan qurilgan baland minorali Toshmasjid va Qo‘rg‘on masjidlari bizgacha yetib kelgan.

Yaqin davrlarga qadar Vang‘ozi qishlog‘idagi bu inshootlarning qurilish sanasi va kim tomonidan qurilganligi ma’lum emas edi.. Ayrim tadqiqotlarda Toshmasjidni XVI asrga oid va Abdullaxon I I tomonidan qurdirilgan deyilsa, boshqalarida undan minorani XVI I I asrda barpo etilganligi ta’kidlanadi.

Badriddin Kashmiriyning «Ravzat ar Rizvon va hadiqat al-g‘ilmon» nomli asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Toshmasjid va minora 16583-1586 yillari mashhur din peshvosi Xoja Sa’d Jo‘yboriy tomonidan quydirilgan.

San’atshunos olima Mavluda Yusupovaning tadqiqotlarida yozilishicha. Toshmasjid XVI asrda qurilgan, lekin buzilib ketgan madrasa va hammomdan iborat me’moriy majmuaning markaziy binolaridan hisoblangan . Majmua
tekis joyda joylashgan, uning sharq tomonidan ariq oqib o‘tgan, shimol tomonida yo‘l bor, majmuaning janub tomonida esa qabriston joylashgan.Majmua tarkibida qabriston, shuningdek, madrasa va hammomning mavjudligi Buxoro vohasining o‘rta asrlar me’morchili taraqqiyotiga tayanib, quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi. Ya’ni qabristonga avliyo dafn etiladi.

So‘ngra tavof joyiga aylangan qabriston atrofida me’moriy majmua vujudga keladi. Majmuaga kiruvchi binolar yuz yillar davomida bir necha marta qayta qurilgan, ularning bir qismi buzilib ketgan.

Sho‘ro tuzimi davrida Toshmasjit majmuasi buzib tashlangan. 2002 yil besh oy davomida juda katta ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Hozirgi go‘zal qiyofaga keltirildi.

7. «Rabot» nima degani?

Yaqinda ishdan qaytayotib bosh muharririmiz bilan taksi haydovchisining suhbatlariga guvoh bo‘lib qoldim:

-Qaysi qishloqdansiz? –so‘radilar R. Maqsudov.

-Rabot qishlog‘idan,-javob berdi taksi haydovchisi.

- Qishlog‘ingiz nomi ma’nosini bilasizmi?- so‘radilar yana bosh muharririmiz.

- «Rabot», «rabota»-ish, ishchi bo‘lsa kerak-da,-javob berdi haydovchi.-Axir, Rossiya davridan qolgan-ku bu nom!

-«Rabot» so‘zi juda qadimiy. «Kuchaytirib qo‘riqlanadigan, karvonsaroyli shaharmonand qishloq» ma’nosini bildiradi,- dedilar bosh muharririmiz.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» da «Rabot» so‘ziga shunday tasnif berilgan.

RABOT-musofirxona; (karvonsaroy) tar. 1. Mustahkamlangan qo‘rg‘onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma’lum masofada joylashgan istehkom; qo‘rg‘on. Mirzacho‘ldagi har bir daraxt, uy… rabot juda ko‘p noma’lum qahramonlarni tilsiz hikoya qilib berishi mumkin. S. Akbariy, «Shodlik davomi» kitobidan.

2. Savdo yo‘llaridagi mustahkamlangan manzil karvonsaroy. «Ariq qazmoqdamiz, cho‘llarda ish ko‘p. Rabotu madrasa, yo‘llarda isht ko‘p». Uyg‘un va Sulton, «Alisher Navoiy» dramasidan.

Buyuk ipak yo‘linig bir tomoni G‘ishti orqali G‘amxo‘r, Qal’ai Azizon, Toshrabot, Saroy, Bobodo‘g‘i orqali Hazoraga o‘tgan. Toshrabotda qadimda toshdan qurilgan rabot mavjud bo‘lgan. Toshrabot qishlog‘i 100 yillar oldin buzib tashlangan.

Katta savdo yo‘lida joylashganligi sababli tumanimizda Rabot so‘zi bilan bog‘liq hududlar juda ko‘p. X’Xomrabot, Bo‘lakrabot, Rabot (Zarmetan MFY), Beshrabot, Oqrabot, O‘rta Rabot, Yangi Rabot, Qumrabot Rabotigardi kabi 15 dan ortiq qishloq bo‘lgan. Mana shu nomlarning o‘zi ham tumanimizning juda qadim tarixga ega ekanligidan dalolat.

8. Qiziltepa atamasi qanday paydo bo‘lgan?

Ba’zan kishilar orasida Qiziltepa atamasi sho‘ro tuzumi davrida, qizilga sig‘inishgani uchun paydo bo‘lgpn, degan fikrlarni ham eshitib qolamiz. Aslida-chi?

Buxoroning boshqa sug‘orma yerlari kabi Zarafshon daryosi qirg‘oqlari yerlari ham qoramtir rangda. Biroq Toshrabotu Bo‘ston va Vang‘ozidan cho‘l hududi tomon yerlar tuprog‘i qizg‘ish rangda, Ko‘ktog‘ tomonda esa baland-past tepaliklar qip-qizil tuproqdan iborat. Shuning uchun aholi qadimdan bu joylarni Qiziltepa deb atab kelgan .

Tuman markazining shimoli, O‘zbekiston katta yo‘lining ustidan o‘tuvchi Toshrabot ko‘prigining quyisi, Tavois qishlog‘i shar qida Qiziltepa tarixiy yodgorligi saqlanib qolgan. Bu yodgorlik tabiiy balandlik qir ustida bunyod etilgan.

A.Yu. Yakubovskiy rahbarligidagi ekspedisiya tomonidan o‘rganilib, tuman markazining shimoliy chekkasida joylashganligi aniqlangan. XX asrning 30yillarida yodgorlik aylanmasining umumiy uzunligi 230 metrni, balandligi 11-12 metrni tashkil etgan. Janub va g‘arb tomomndan Kampirak devor unga yaqinlashib kelgan. Uning bitta darvozasi shu yerda bo‘lgan. Yodgorlik qadimda katta savdo hamda harbiy strategik ahamiyatdagi qal’a-shahar sifatida faoliyat ko‘rsatgan. U milodiy IV-V asrlar bilan davrlanadi. Taxminlarga ko‘ra, yodgorlikda hayot to‘xtagandan so‘ng uning aholisi Navbog‘ qishlog‘iga ko‘chgan.

U yerdan IV-V asrlarga oid sopol idish parchalari topilgan. Kanpirak devorning IV asrda bunyod etilganini e’tiborga oladigan bo‘lsak, uning Abu Muslimtepa, Shahri Vayron, Oqsochtepa, Lavandoqtepa kabi bu istehkom doirasidagi katta savdo va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qal’a va markaz sifatida faoliyat ko‘rsatgani aniq bo‘ladi. Arablar bosqini davrida badaviylar bu nerdagi shaharsozlik madaniyatinig o‘ta rivojlanganini ko‘rib hayratda qolgan bo‘lsalar, 1878 yili temir yo‘l qurish rejasini tuzgan ruslar ham Qiziltepani e’tibordan chetda qoldirmaydilar. Chunki bu hududda tashib ketiladigan yer ust iva yer osti boyliklari ko‘p bo‘lgan. Yana Qiziltepa strategik ahamiyatga ham ega. Qiziltepadan hozirgi G‘ijduvon, Shofirkon, Vovkent, Konimex, Navbahor tumanlarini temir yo‘l bilan bog‘lash mumkin edi. U vaqtlarda temir yo‘l poyezdlari parovozlar yordamida harakatga keltirilgan. Qiziltepa temir yo‘l stansiyasiga Zarafshon daryosidan eng yaqin masofadan suv keltirish mumkin bo‘lgan. Shuning uchun Qiziltepa stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan va u 1888 yil amalga oshirilgan. Xullas, 1888 yilda Qiziltepa hududida temir yo‘l izlari yotqizilgan va Qiziltepa stansiyasi qurilgan. Stansiya temir yo‘l

bekati, temir yo‘l ustaxonasi, suv saqlash minorasi hamda aholi xonadonlaridan iborat bo‘lgan. Aynan shu sana bilan Qiziltepa toponimii (temir yo‘l stansiyasi, keyinchalik tuman va shahar nomi)ni tarix sahifalarida muhrlash boshlangan. 1935 yil 9 fevralda O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining rahbarlik idoralarini kuyi idoralarga yaqinlashtirish va ular bilan aloqalarni imustahkamlash maqsadida yirik va hududi tarqoq rayonlarini ajratish to‘g‘risidagi 8-sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorga asosan O‘zbekiston SSRda 17ta yangi rayon (tuman)tashkil etilgan.. Ulardan biri bo‘lgan Qiziltepa rayoniga G‘ijduvon rayoni tarkibidagi Arabon, Varozun, Zarmitan, Vang‘ozi, Qiziltepa, Bo‘ston, G‘ardiyon, Xoja Hasan, Qal’ai Azizon qishloq sovetlari olib berilgan. Qaror bilan tuman markazi qilib Qiziltepa temir yo‘l stansiyasi belgilangan. Keyin tuman markazi Qiziltepa temir yo‘l stansiyasidan Bo‘ston qishlog‘i (posyolkasi)ga ko‘chgan. Biroq Qiziltepa tumani 1962 yili Qijduvon tumaniga qo‘shilgan.

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidimining 1970 yil 7 dekabrdagi 1811- qarori bilan Qizltepa tumani qayta tashkil etildi. Shu qaror bilan Qiziltepa temir yo‘l stansiyasi tuman markazi qilib qayta belgilangan. Tumanda ko‘p yillar mas’ul lavozimlarda ishlagan I.G. Skorikovning guvohlik berishicha, o‘sha vaqtdagi O‘zbekiston rahbari Sharof Rashidov tuman markazini belgilash, uni qayta qurish masalalari bilan aynan Qiziltepaning o‘zida bo‘lib shug‘ullangan va tegishli topshiriqlarni bergan.

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1979 yil 6 noyabrdagi 586-raqamli qarori bilan esa xalq deputatlari Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasining iltimosi qondirilib, Qiziltekpa rayonining ma’muriy markazi bo‘lmish Qiziltepa

shahar posyolkasi rayonga bo‘ysunuvchi shahar kategoriyasiga o‘tkazildi.

1982 yil 20 aprelda Navoiy viloyati tashkil qilindi. Bu paytda Buxoro viloyati tarkibida bo‘lgan Qiziltepa tumani hududi yangi tuzilgan Navoiy viloyatiga kiritildi. Biroq keyinchalik O‘zbekistonda «viloyatlarni yiriklashtirish» bahonasida ayrim viloyatlar tugatildi, jumladan, 1989 yil may oyida Navoiy viloyati hududi avval Samarqand keyin Buxoro viloyatlari tarkibiga qo‘shib yuborildi. Xayriyatki, O‘ZSSR rahbariyatining bu valyuntaristik xatosi O‘zbekiston Respublikasi yangi siyosiy rahbariyati tomonidan tuzatildi va 1992 yil 27 yanvarda Navoiy viloyati avvalgi chegarasida qayta tiklandi.

Ayni paytda mamlakatdagi eng salohiyatli tumanlardan biri sifatida tilga olinadigan tumanimizda 53 ta mahalla bor. Tumanimiz tarixi ajdodlarimizning ming yillar davomida amalga oshirgan jasoratli mehnatlari mahsuli. Uni yanada boyitish va rivojlantirish bugungi avlodning muqaddas burchi ekanligini hamisha his etib yashash vash u yo‘lda ishlash barchamizga nasib bo‘laversin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov Qahramon. Qiziltepa tarixi / Q.Rajabov, R.Maqsudov; mas’ul muharrir S. Inoyatov.-T.: «Muharrir» nashriyoti, 2011, 352 b.

2. Maqsudov, Raxim. Qiziltepa t tarixi/ R. Maqsudov, Q.Rajabov.-Toshkent: «TAMADDUN» MCHJ, 2015.- 280 b.

3. Rajabov, Q.K. Qiziltepa tumani: kecha va bugun [Matn]. Ilmiy-ommabop / Q.K. Rajabov, R.Q.Maqsudov-Toshkent: «SAHHOF», 2021.-408 b.

4. Maqsudova, O. Qadimiy va hamisha navqiron [Tumanimiz Qiziltepa nomi bilan (1935) tashkil topganligining 90 yilligi oldidan] / O. Maqsudova // Yangi Qiziltepa . – 2024. – 7-fevr. –B.2.